



**"BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK
HOLATLARINI ANIQLASH, ZO'RAVONLIK XAVFI
DARAJASINI BAHOLASH, HIMOYA QILISH
REJASINI ISHLAB CHIQISH HAMDA
UNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI
NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA"GI
QAROR**



VMQ-440-son, 14.07.2025-y.



Mazkur qaror bilan tasdiqlangan nizomda **Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi** belgilangan

Agar bolaga nisbatan zo'ravonlik qilinsa yoki shunday xavf bo'lsa, bola o'zi yoki uni himoya qiladigan kattalar — ota-onasi, yaqinlari yoki boshqa odamlar bilan birga bu holat haqida:

- ✓ - “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi
- ✓ - Ichki ishlar organlari
- ✓ - boshqa mas’ul davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish mumkin



Demak, biror bola zo'ravonlikka duch kelsa, haqorat qilinsa yoki unga yomon munosabatda bo'lishsa, tegishli idoralarga xabar berish kerak

Agar bolaga yomon munosabat qilinganligi haqida xabar kelsa, “Inson” markazi ichki ishlar xodimlari bilan birga **1 kun ichida** bolaning ahvolini tekshiradi. Bu paytda “Inson” markazi bolaning hayoti yoki sog'lig'iga hozir xavf bormi-yo'qmi, shuni aniqlaydi. Tekshiruv natijasiga qarab, bolaning holati xavfi **“past”** yoki xavfi **“yuqori”** deb baholanadi



Agar bolaga nisbatan yomon munosabat qilingan bo'lsa, ichki ishlar xodimi “Inson” markazi bilan kelishgan holda **24 soat ichida** bolani himoya qilish uchun maxsus hujjat — **himoya orderini** beradi.

- Himoya orderi **rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi** va **bolani himoya qilishga** xizmat qiladi
- Bu hujjat **30 kungacha amal qiladi** hamda sud tomonidan **1 yilgacha** muddatga uzaytirilishi mumkin



Zo'ravonlik sodir etgan shaxs **himoya orderi nusxasini olganidan so'ng** o'z xulq atvorini yaxshi tomonga o'zgartirishi, himoya orderida belgilangan shartlarni bajarishi lozim

Shuningdek, “Inson” markazi mas’ul davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda **bolani himoya qilish rejasini** tuzishi mumkin



Himoya qilish rejasi — bolaga qanday yordam berilishi, bu yordam qanchalik ko‘p va qanchalik tez-tez ko‘rsatilishi, qaysi muddatlarda amalga oshirilishi, buning uchun kimlar mas’ul ekanligi hamda erishilishi kerak bo‘lgan natijalar ko‘rsatilgan chora-tadbirlar rejasidir



Bu reja zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki zo‘ravonlik xavfi ostida bo‘lgan bola hamda uning qonuniy vakili ishtirokida tayyorlanadi. Agar qonuniy vakil bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf tug‘dirgan bo‘lsa, u bu jarayonga jalb qilinmaydi

